

ARTUR KONAN DOYLNING "SHERLOCK HOLMES" ASARINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA ALMASHTIRISH TRANSFORMATSIYASIDAN FOYDALANISH

Absaxatova Saida - TerDU talabasi

+998935666276, saidaabdusaxatova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Artur Konan Doylning "Sherlok Holms" asarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda foydalanilgan lingvistik usullar, xususan, almashtirish transformatsiyasi tahlil qilinadi. Almashtirish transformatsiyasi tarjimada matnning ma'nosini saqlab qolgan holda so'z va iboralarni boshqa strukturaviy shakllarga o'zgartirishni nazarda tutadi. Ushbu tadqiqotda asar tarjimasi jarayonida quyidagi asosiy jihatlar ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: Sherlock Holmes, transformatsiya, almashtirish transformatsiyasi, tarjima

Hammamizga ma'lumki, ingliz tilidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida almashtirish transformatsiyalari bilan bog'liq muammolarga duch kelinadi. Ushbu maqolada A.K.Doylning "Sherlock Holmes asari misolida almashtirish transformatsiyalari bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi.

Almashtirish transformatsiyasi bu matnda bir tilning grammatika, leksika yoki semantikaga xos bo'lgan unsurlarini boshqa tilda mazmunan mos keluvchi yoki yaqinroq shaklga o'zgartirish jarayonidir. Bu jarayon natijasida asl matnning mazmuni, uslubi va estetik jihatlari yangi tilga moslashtiriladi.

Sherlock Holmes asari nafaqat ingliz adabiyotining durdona na'munasi, balki jahon adabiyotining mashhur asarlaridan biridir. Ushbu asarni tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki madaniy to'siqlar ham mavjuddir. Shu sababli, tarjima jarayonida turli usullardan, xususan, almashtirish transformatsiyasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. A.K.Doyl asarlarida murakkab jumlar, ingliz madaniy kontekstiga xos iboralar va idiomalar ko'p uchraydi. Ularni tarjima qilishda quyidagi almashtirish transformatsiyalari qo'llaniladi:

Grammatik almashtirish:

- *"The mystery was solved by Sherlock Holmes."*
- *"Sherlock Holmes sirni ochdi."*

Ingliz tilidagi passiv konstruksiyalar keng qo'llaniladi, o'zbek tilida esa faol shakl afzal ko'riladi.

Leksik almashtirish:

- *The game is afoot*

- *Ish boshlanmoqda*

Bu yerda “*the game*” so’zi oddiy “*o’yin*” deb tarjima qilinmasdan, konteksga mos holda “*ishlar*” deb almashtirilgan.

Semantik almashtirish:

- *He is as cool as a cucumber*

- *U xotirjam odam edi.*

Ba’zi so’z va iboralar bevosita tarjima qilinsa, ma’nosiz yoki chalkash bo’lishi mumkin. Shu sababli, ularni o’zbek tilidagi ekvivalentlari bilan almashtirish talab qilinadi. Bu yerda “*as cool as a cucumber*” iborasi to’g’ridan-to’g’ri tarjima qilinmay, ma’nodosh ibora bilan almashtirilgan.

- *He vanished into thin air*

- *U g’oyib bo’ldi.*

Bu yerda “*into thin air*” iborasi o’zbekcha sodda idoda bilan almashtirilgan.

Dedektiv uslubni saqlash:

- *The footprints spoke volumes.*

- *Izlar hammasini aytib turardi.*

Sherlock Holmes hikoyalarida dedektiv uslubda qisqa, lekin ma’noli gaplardan foydalanilgan. Bu uslubni tarjimada saqlash muhim. Bu yerda “*spoke volumes*” iborasi “*ko’p gapirdi*” deb tarjima qilmasdan, asarning dramatik va dedektiv uslubini saqlagan holda moslashtirilgan.

K.Doylning “Sherlock Holmes” asarini o’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida almashtirish transformatsiyasi muhim vosita hisoblanadi. Bu usul nafaqat matnni maqsadli tilga moslashtirish, balki asar mohiyatini saqlab qolish imkonini beradi. Shunday qilib, badiiy tarjima sifatini oshirishda transformatsion usullarning o’rni katta ekanligi isbotlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doyle A.C. “*Sherlock Holmes Stories*”, London, 1892.
2. Komissarov V.N. “*Badiiy tarjima asoslari* Moskva, 1990.
3. Nafisa, A. Using Stylistic Devices in Translation as an Example of the Story a Christmas Carol. *JournalNX*, 40-43.
4. Kizi, A. N. O. (2019). Lexical problems in rendering the story “A Christmas Carol” by Charles Dickens into uzbek. *ЕВРАЗИЙСКИЙ НАУЧНЫЙ*, 34.
5. Nabi, F. (2024). OFFICIAL DOCUMENTS IN DARI LANGUAGE, ITS TRANSLATION CHALLENGES. *Philological research: language, literature, education*, 4(4), 73-76.
6. Nabi, F., & Xudayqulov, A. (2024). GRAMMATICAL RULES OF PRINCIPLES OF ENGLISH TO DARI TRANSLATION. *Interpretation and*

Researches,

(8(30).

извлечено

от

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2459>

7. Aliboyeva, N. A. Q. (2023). LITERARY TRANSLATION OF CHILDREN'S LITERATURE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(07), 21-25.

8. Aliboyeva, N. A. Q. (2022). The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 77-80.

9. Safarova, D. A., & Khasanova, K. B. (2022). ENGLISH TOPONYM TRANSLATION METHODS IN RUSSIAN LANGUAGE. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 37-40.

10. Khasanova, K. B., & Safarova, D. A. (2023). BASICS OF LINGUODIDACTICS AND IT'S CONNECTION WITH OTHER SCIENCES. Builders Of The Future, 1(01), 50-52.